IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDAGI TARBIYA MEXANIZMLARI

Zavqiddin Gadoyev
OzDJTU, ijtimoiy fanlar kafedrasi oqituvchisi
E-mail: zavq0801@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining nazariy va amaliy asoslari pedagogik hamda sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ta'lim va tarbiya tizimlari ijtimoiylashuvning asosiy mexanizmlari sifatida tadqiq etilib, ularning jamiyat barqarorligi va deviant xulq-atvorni neytrallashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, individ ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi makro va mikro, jumladan, tabiiy-geografik, sotsial-iqtisodiy, madaniy va etnik omillar tasniflangan. Shaxs shakllanishida biologik va sotsial determinantlarning mutanosibligi muammosi sotsiologik ta'limotlar (O. Kont, G. Spenser, E. Dyurkgeym, Z. Freyd) prizmasida ko'rib chiqilgan hamda zamonaviy jamiyatda ijtimoiy nazorat va deviant destruktiv xulq-atvorni o'rganishning dolzarbligi asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, ta'lim tizimi, tarbiya mexanizmi, makroomillar, mikroomillar, biologik determinantlar, sotsial determinantlar, deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat.

Annotation. The article analyzes the theoretical and practical foundations of the personality socialization process from pedagogical and sociological perspectives. Education and upbringing systems are examined as primary mechanisms of socialization, highlighting their role in ensuring societal stability and neutralizing deviant behavior. Furthermore, the article classifies macro and micro factors influencing individual socialization, including natural-geographic, socio-economic, cultural, and ethnic determinants. The problem of the correlation between biological and social determinants in personality development is reviewed through the prism of sociological theories (A. Comte, H. Spencer, E. Durkheim, S. Freud), and the relevance of studying social control and deviant destructive behavior in modern society is substantiated.

Keywords: socialization, educational system, mechanism of upbringing, macro-factors, micro-factors, biological determinants, social determinants, deviant behavior, social control.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические основы процесса социализации личности с педагогической и социологической точек зрения. Системы образования и воспитания исследуются как ключевые механизмы социализации, освещается их роль в обеспечении стабильности общества и нейтрализации девиантного поведения. Также классифицируются макро- и микрофакторы, влияющие на социализацию индивида, включая природно-географические, социально-экономические, культурные и этнические детерминанты. Проблема соотношения биологических и социальных факторов в формировании личности рассматривается через призму социологических учений (О. Конт, Г. Спенсер, Э. Дюркгейм, З. Фрейд), и обосновывается актуальность изучения социального контроля и девиантного деструктивного поведения в современном обществе.

Ключевые слова: социализация, система образования, механизм воспитания, макрофакторы, микрофакторы, биологические детерминанты, социальные детерминанты, девиантное поведение, социальный контроль.

Kirish. Ijtimoiylashuv asosan nazariya va amaliyotda maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir qilish jarayoni sifatida qaraladi. Hozirgi zamon ijtimoiylashuv nazariyasini tushunishda tarbiya va ta’lim tizimini ijtimoiylashuv mexanizmlari sifatida qarash ma’qullanadi. Bunda tarbiyaning asosiy vazifalari, ijtimoiylashuvning asosiy vazifalaridan farqlanib, birinchidan avval shakllantirilgan shaxs modelini amalga oshirish xosdir. Bu model jamiyatning yanada muvaffaqiyatliroq ishlashi va rivojlanishi, bilimlar va madaniy qadriyatlar majmuasini o‘zlashtirish, vazifa va ehtiyojlarga javob berishi kerak. Ijtimoiylashuv funksiyasi esa sotsial tizim vazifalarini bajarishi zarurligiga mos ravishda ma’lum jamiyatda turli sotsial rollarni amalga oshirishga tayyorgarlikni nazarda tutuvchi shaxs rivojlanishining zarur darajasini ta’minlashidan iboratdir. Ijtimoiylashuv jarayonida nafaqat oldingi alodlarning ijobiy tajribasi, balki avvalgi sivilizatsiyalar tarixiy tajribasiga va zamonaviy sanoat rivojlanishiga asoslangan tendensiyalar ham o‘zlashtiriladi. Tarbiya mexanizmining o‘ziga xosligi atrof-muhitdagi hamda yakka individ tabiatidagi deviantlikka tabiiy moyillikning salbiy ta’sirini neytrallash yoki kuchsizlantirish maqsadiga ega. Shuningdek ta’lim va tarbiya tizimlari ijtimoiylashuvning boshqa institutlari bilan bir qatorda ijtimoiylashuv mexanizmi turlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimining maqsadi tizimga maqsadli ta’sir qilib ijtimoiylashuv jarayonini sotsial muhit tasodifiy ta’sirini istisno qilib uni to‘liq bajarishni nazarda tutadi. Biroq real hayotda odam doimo atrof muhit bilan munosabatda bo‘ladi va ta’sir qiluvchi omillarning keng miqyosi

ta’sirida shakllanadi. Bu omillar turli darajada o‘rganiladi, ularni makroomillar va mikroomillar sifatida belgilash mumkin. Makroomillarning shaxs, sotsial guruh va etnoslar shakllanishida ijtimoiylashuv ta’sirini o‘rganishi muammosi gumanitar fan tadqiqotlarida boy an’anaga ega. Mikroomillarning shaxs ichki dunyosi va shaxslararo munosabatlarga ta’sirini tadqiq qilish psixologiya va sotsial psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Umuman individ ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

• Tabiiy – geografik omil (tabiiy geografik muhit o‘ziga xos xususyatlari va uning ijtimoiylashuvga ta’siri);

• Sotsial – demografik omil (jinsiy, yosh tarkibi, yoshlar soni, oilaviy munosabatlar, migratsion jarayonlar va h.k);

• Sotsial – iqtisodiy omil (ajratuvchi munosabatlar xarakteri, sotsial infrastuktura, mehnatning o‘ziga xos xususyati);

• Ishlab chiqarish – texnologik omil (hudud korxonalari tizimi va rivojlanishi);

• Sotsial – siyosiy omil (davlat sotsial siyosatining ahamiyati, jumladan inson resurslarining qayta tiklanishiga);

• Sotsial - huquqiy omil (sotsial munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvsi darajasi);

• Sotsial – madaniy omil (madaniy, ma’naviy qadriyat va jamiyatdagi an’analarning avloddan - avlodga meros bo‘lib o‘tish jarayoni, o‘ziga xos madaniy institutlarning individga ta’siri);

• Milliy – etnik omil (milliy xarakter va an’analar, ong, etnos urf-odatlarning individ ijtimoiylashuvsiga ta’siri);

• Sotsial – psixologik omil (shaxs sotsial–psixologik tizimi shakllanishining o‘ziga xos xususyatlari). Ijtimoiylashuv nazariyasida eng munozarali va muhim muammolardan biri bu shaxs ijtimoiylashuvining sotsiologiya fanining o‘zida ham, boshqa gumanitar fanlarda ham biologik va sotsial determinantlar mutanosibligini tadqiq qilish masalasi hisoblanadi. Bu yerda fikrlar qarama qashiligi ancha kuchli namoyon bo‘ladi. Bir tomondan sotsial xulq-atvorni faqat biologik xarakterga bog‘liq holat bilan izohlansa ikkinchi tomondan esa inson xulq-atvori sotsial o‘zgarishlarning cheksiz imkoniyatlari bilan bog‘liq deya fikr yuritiladi. Manba sifatida biologik irsiy determinantlarni qarab chiqishga urunishlar ko‘proq O.Kont va G.Spenserning[1]

[1] [1] Конт О. Курс позитивной философии//Родоначальники позитивизма. СПб., 1912. Вып. 4., История социологии в Западной Европе и США. Учебник для вузов. Ответственный редактор — академик И.Г. В. Осипов. — М.: 2001.

sotsiologik fikrlariga xosdir. Sotsial holat sifatida ko‘rish esa Z.Freydning psixoanaliz konsepsiyasida o‘z aksini topgan. Sotsial muhitning inson xulq-atvorini belgilashdagi mutloq roli nuqtai-nazari E. Dyurkgeymning bixeviorizm nazariyasidagi sotsial pozitsiyasiga xos va o‘tgan asrning 90-yillarga qadar ijtimoiy fanlarda muhim o‘rin egallagan. Mazkur holatda shaxs sotsial munosabatlarning mevasi va obyekti sifatida namoyon bo‘ladi va uni o‘rab turgan muhit qanday qadriyatlar asosida shakllangan bo‘lsa shaxs ham shu qadriyatlarga yo‘g‘rilgan holatda kamolga yetadi. Biroq hozirgi zamon olimlarining ko‘pchiligida uchinchi nuqtai-nazar, shaxs xulq-atvorining determinatsiyasida sotsial va biologik omillarning mutanosibligini aniqlash muammosi ustun turadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiyada olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarning aksariyatida ba’zi tabiiy qiziqishlarning ma’lum kishilar guruhida juda kuchli ta’sirga ega ekanligi va ularni u yoki bu yo‘l bilan cheklab, bosib turish kerak degan fikrga yon bermoqdalar. Olimlar fikricha seksual va agressiv qiziqishlarni nazoratsiz qoldirish ayniqsa xavflidir. Shaxslarning nazoratsiz tabiiy qiziqishlaridan kelib chiqadigan zo‘ravonlik va xavf-xatarning oldini olish maqsadida jamiyat o‘zi qabul qilgan sotsial xulq-atvor me’yorlarini o‘rnatish va majburlash huquqiga ega. Shuning uchun deviant destruktiv xulq-atvor tabiati va manbaalarini o‘rganuvchi sotsiologiya va sotsial psixologiya sohasida ana shunday tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022. [1]
3. Alqarov, X. Shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 164 b.
4. Tojiyeva, M. Ijtimoiy pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 210 b.
5. Qodirov, B. R. Shaxs shakllanishida sotsial muhit va mikroomillarning ta’siri // O‘zbekiston psixologiya jurnali. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 45-51.
6. Дюркгейм, Э. Социология образования / Пер. с франц. – Москва: Интор, 1996. – 80 с.
7. Кон, И. С. Ребенок и общество. – Москва: Академия, 2003. – 336 с.
8. Фрейд, З. Я и Оно (Сборник трудов по психоанализу). – Москва: Эксмо, 2015. – 480 с.

9. Спенсер, Г. Личность и государство / Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2007. – 232 с.

10. Giddings, F. H. The Theory of Socialization: A Syllabus of Sociological Principles. – New York: Macmillan, 1896. – 47 p.

11. Darmon, M. Socialization. – London: Polity Press, 2023. – 208 p. [1, 2, 3, 4]

12. ZiyoNET axborot-ta’lim portali manbalari (ijtimoiylashuv va ijtimoiy nazorat mavzusidagi ilmiy maqolalar to‘plami). [1]